

QAYTA HIYOYANI TAKRORLASH, SO‘Z VA JUMLALARNI AYTIB TURISH USULLARI

Ismatova Niginabonu Azamat qizi
Maktabgacha va Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

So‘z va jummalarni aytib turish- Bu usul qayta hikoya qilishning ravonligini, izchilligini ta'minlaydi, uzoq pauza qilishga yo'l qo'ymaydi. Bu usuldan ko'proq bola asar matnining ayrim joylarini esdan chiqarganda foydalaniladi. Agar bola juda yaxshi hikoya qilsa-yu, biroq nutq sur'ati juda sekin bo'lsa, tarbiyachi pauza vaqtida sabr-toqat bilan hikoyaning davomini kuzatishi: bolaning gavda holatiga e'tibor bilan qarashi, dalda berishi orqali bola diqqatini to'plashi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oilada metodik ishlar olib borilishi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining oila bilan olib boradigan ish mazmuniga quyidagilar kiradi: -bola tarbiyasi, oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni himoya qilish bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotida amalga oshirilayotgan ishlarning mazmuni bilan tanishtirib borish;

-ota-onalarga o'z farzandlarining tarbiyasi uchun davlat va jamiyat oldida javobgar ekanliklarini tushuntirib borish;

- ota-onalarni bola tarbiyasi uchun zarur bo'lgan bilim, malakalardan xabardor qilish (bolalarning yosh, anatomik-fiziologik va ruhiy xususiyatlari, ularni oilada tarbiyalashning mazmuni, metodi, shart-sharoitlari bilan tanishtirish);

- bola tarbiyasida oila bilan hamjihatlik, bolani to'g'ri tarbiyalashni nazorat qilib borish, oila tarbiyasining eng yaxshi namunalarini o'rganish va ommalashtirish.

Bola maktabgacha ta'lim tashkilotida egallagan eng yaxshi fazilatlarni oila sharoitida davom ettirib, oilada egallagan eng yaxshi fazilatlarni esa maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'llansa, istalgan ijobiy natijalarga erishish mumkin. Tarbiyachilar oila tarbiyasiga doir tajribalaridagi ijobiy ishlarni ko'ribgina qolmay, balki uni qo'llab-quvvatlash va shu asosida ota-onalar e'tiborini bola tarbiyasida hali hal etilmagan vazifalarga qaratishlari lozim. Yuqoridagi ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va ularga rahbarlik qilishda mudira javobgar shaxs hisoblanadi. Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Rejada umumiy va guruhij majlislar, ota-onalar uchun ochiq eshiklar kuni, suhbat va maslahatlar, otaliq tashkilotlarida ko'rgazmalar tashkil etish va konsertlar qo'yib berish, shuningdek, bu tadbirlarni o'tkazish vaqtlari va unga mas'ul bo'lgan shaxslar belgilanadi. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mavzulari va mazmuni tarbiyachi-metodistning rejasida va tarbiyachining kalendar rejasida aks etadi. Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha juda ko'p ishlarni tarbiyachi –pedagog amalga oshiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan o'zgarishlarni hammadan ko'proq ko'radi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo'ladi. U ota-onalarga bolalar tarbiyasida ko'proq nimalarga e'tibor berish kerakligi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash, sog'lig'ini saqlash, ovqati va kun tartibini to'g'ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishlar mazmuni. Ta'lim tashkilotlari va oila o'rtasida hamkorlik o'natishda mudira, pedagoglar jamoasi va ota-onalar birgalikda faol ishtirok etishlari lozim. Shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijalarga erishish mumkin. Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi alohida ish shakllaridan foydalaniladi: suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, ayrim ota-onalarni maktabgacha ta'lim tashkilotiga taklif etish, alohida esdaliklar va ko'chma papkalardan foydalanish. Bolaning uyiga borishdan ko'zlangan maqsad oila sharoiti, bolaning oiladagi xulqi qiziqishlari, ota-onasi va oila a'zolari bilan tanishish, shuningdek, ota-onalarni bola tarbiyasining samarali usullari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy tajribalarni o'rganib, ommalashtirishdir. Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki doo'st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a'zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga har gal borishidan

avval o'z oldiga aniq maqsad qo'lishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o'ylangan bo'lishi kerak. Suhbat shunday tuzilishi kerakki, tarbiyachi bilan ota-ona bir-birlarini yaxshi tushunishlari, ular o'rtasida ishonchli aloqa o'rnatilishi darkor. Oilaga borishdan oldin tarbiyachi shu oila to'g'risida (ota-onalarning fe'l-atvori, oilaviy munosabatlar, bolaning rivojlanish darajasi) to'g'risida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi ota-onalar hurmati va ishonchini qozonmoq uchun avval ota-onalarning bolaning ijobiy fazilatlarini to'g'risida fikr, mulohazalarini bilib oladi va bolaning uyidagi hayotini qanday tashkil etish kerakligi, unga nimalarni o'qib, hikoya qilib berish mumkinligi, bolaning kun tartibi, uni oila mehnatida qatnashtirish, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni va usullari bo'yicha tavsiyalar beradi. Albatta, tarbiyachining oila bilan olib boradigan ishida bolaning yoshi, imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi. Oilaga borishning maqsad va mazmuni tarbiyachining rejasini va hisobotida, kundalik daftarida aks ettirilishi kerak. Tarbiyachi har bir bolaning oilasiga yiliga kamida 2 marta borishi kerak. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarining mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etiladi. Masalan:

- bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi, bolalarni maktabga tayyorlash to'g'risidagi qonunlar;

- maktabgachata'lim tashkilotlarining yillik rejasini to'g'risida;

- ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir.

Bu masalalarni jamoabo'lim muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi. Yilning oxirida o'tkaziladigan guruh majlisida ota-onalarga bir yil mobaynida amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya ishlari va kelgusi yilning rejalari, haqida gapirib beriladi. Bu majlisda faol ota-onalar ham hisobot beradilar va faollarning yangi tarkibi saylanadi. Ota-onalar burchagi va ko'rgazma tashkil etish. Ota-onalar burchagi ularni tarbiyaga oid yangiliklar va pedagogik masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Ularga kitoblar, jurnallar, rasmlar, bolalarning ishlari, bolalar ovqatining xillari, bolalarning uyidagi va oiladagi kun tartibi, ota-onalar uchun eslatmalar, e'lonlar joylashtiriladi. Burchak vaqti-vaqti bilan tarbiya vazifasiga qarab o'zgartirib turiladi. Pedagogik bilimlarni targ'ib qilish bo'yicha tashkil etiladigan ko'rgazmalar ko'pincha ota-onalar konferensiyalari, majlislari, konsultatsiyalar oldidan tashkil etiladi. Unda xalq ta'limi to'g'risidagi qonun va qarorlar, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmoqlari va undagi tarbiyalanuvchilar sonining o'sishini ko'rsatuvchi diagrammalar, bolalar bilan olib boriladigan ta'lim - tarbiya jarayonlari, bolalar hayotini aks ettiruvchi tasvirlar, kitob va o'yinchoqlar, bolalarning ishlari o'rin oladi. Ota-onalar burchagi oila bilan olib boriladigan ishning ko'rgazmali usuli, uning did bilan bezatilishiga alohida e'tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, ota-onalarga tarbiya to'g'risidagi filmlar namoyish etiladi, bular ko'pincha ota-onalarni qiziqtiradigan bahslar boshlanishiga sababchi bo'ladi. Ota-onalar uchun ochiq eshiklar kunining tashkil etilishi ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari ishida muhim o'rin egallaydi. Bunday kunlarda ota-onalarga bolalarning mashg'ulotlari, mehnat, o'yin faoliyatlari, sayrlar va bolalarning jamoada o'zlarini qanday tutushlari va shunga o'xshashlar ko'rsatiladi. Ota-onalar qo'mitasi. Ota-onalar qo'mitasi «Maktabgacha ta'lim tashkilotining Ustavi»ga binoan mudiraga yordam berish uchun tuziladi. U ota-onalarning umumiy majlisida bir yil muddatga saylanadi. Bu qo'mitaga har bir yosh guruh ota-onalaridan 1–2 vakil saylanadi. Qo'mitaning asosiy vazifasi mudiraga maktabgacha ta'lim tashkilotining xo'jalik va ta'lim-tarbiya ishlarida yordam berish, qo'mita a'zolari, ota-onalar majlisi va kechalarni tayyorlash, o'tkazish va boshqa ishlarda tarbiyachilarga ko'maklashishdir. Ota-onalar qo'mitasi bolalarning ota-onalari bilan tanishadi, bolalarni tayyorlash bo'yicha ular bilan ish olib boradi. Qo'mita a'zolari har ikki oyda bir marta yig'ilish o'tkazadi. Ota-onalar qo'mitasi mudiraning ish rejalari va ishning ahvoli to'g'risidagi o'zlarini qiziqtiruvchi ba'zi masalalar haqidagi ma'ruza va hisobotni eshitishga haqlidir. Ota-onalar qo'mitasining faoliyati haqidagi hujjatlar maktabgacha ta'lim tashkilotida saqlanadi. Munozara shaklidagi ota-onalar bilan o'tkaziladigan pedagogik kengash. Maqsad: Ota-onalarga bolalarining maktabning ilk bosqichiga moslashuvini silliqlik bilan o'tishida yordam berish. Bolalarni maktabga tayyorlashda ota-onalarning vaziyatlarini aniqlash.

Ishtirokchilar:

- maktabgacha ta'lim tashkiloti metodisti;
- katta guruh tarbiyachilari;
- maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining ota-onalari;
- 1-sinf o'quvchilarining ota-onalari.

3. Ota-onalar bilan o'tkaziladigan pedagogik kengash.

Pedagogik kengashga tayyorgarlik:

1. Ota-onalar bilan bolalar maktabga tayyorgarligi to'g'risida suhbat uyushtirish.
2. Tarbiyachilar bilan bolalarni maktabga tayyorgarligi yuzasidan mavzuli nazorat olib borish.
3. Ota-onalar majlislarida ular bilan bolaning maktabga tayyorligi bo'yicha bahs-munozara o'tkazish.
4. 1-sinf o'qituvchilari bilan uchrashuv o'tkazish.

Kun tartibi :

1. «Bola maktab bo'sag'asida» mavzusida 1-sinf o'qituvchilari, ota-onalari va tayyorlov guruhi tarbiyachilari bilan mavzusida savolnoma o'tkazish.
2. Bolalarning maktabga tayyorligini aniqlash (munozara asosida).
3. Bolalarni maktabga tayyorligini savolnoma orqali aniqlash.
4. Uyga vazifa. Bolalarni maktabga tayyorlash borasida ota-onalar uchun ko'rgazma tayyorlash.

Qismlar bo'yicha qayta hikoya qilish. Bu usul bolalar idrokining qimmatini yo'qotmaydi, chunki qayta hikoya qilish uchun bolalarga mazmuni tanish bo'lgan asar tanlanadi. Qismlar bo'yicha qayta hikoya qilish usulidan foydalanib, mashg'ulotni tashkil etish jarayoni bolalardan kun davomida so'lash imkonini yaratib beradi. Rollarga bo'lib qayta hikoya qilish. Bu usul nutqning ma'nodorligini (ifodaliligini) shakllantirishga yordam beradi. Tarbiyachi tomonidan ishtirok etuvchi shaxslar harakterining izohlanishi bolalar nutqining oydinlashishiga, diqqatining faollashishiga katta ta'sir etadi. Rollarga bo'lib qayta hikoya qilish o'rta guruhdan boshlab qo'llaniladi. Bu usuldan mashg'ulotning oxirida foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'quvchi uchun asarni qayta hikoya qilib berish murakkab jarayondir. O'quvchilar o'qigan matnlarini bir marta o'qigani aytib berisha olmaydi. Tajribadan ko'rinib turibdiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'pchiligi izchil nutqqa ega emas. Ular har doim matnni, xatto tanish ertakni ham to'liq qayta hikoya qilib bera olmaydi. Rasmlarga qarab hikoya tuzishga qiynaladi. Agar ularga o'qituvchi savol bersalar juda qisqa qilib, javob beradilar. Asarni qayta hikoya qilayotgan o'quvchiga xalaqit bermaslik, o'z fikrini ijodiy va erkin ifodalashni ta'minlash zarur. Hozirda maktabda o'quvchilar nutqini rivojlantirish uchun katta ishlar olib borilmoqda. 1-sinfda boshlab o'quvchilarga matnni qayta hikoya qilish vazifasi beriladi. Biroq shunga qaramay birinchi, ikkinchi sinf o'quvchilarining aksariyati matnlarni osonlik bilan qayta hikoya qilib, yaxshi baholarga ega bo'lishadi. Bunda qayta hikoyash jarayonida hech qanday muammo yo'qdek tuyiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mustahkam xotiraga egadirlar. Berilgan kichik matnlarni deyarli yoddan yodlab olishi va keyin uni qayta hikoya qilib berishlari ular uchun qiyin emas. Bola matn mazmunini yaxshi yetkazganidan hamma xursand bo'lsa-da, lekin vaqt o'tgani sayin bola matnni qanday qayta hikoya qilishni bilmaydi. Bu borada o'quvchilarda muammolar 3-4 sinflarda boshlanadi. 3-4 sinf darsliklarida hajmi kattaroq asarlar, ilmiy hikoyalar berilib boshlanadi. O'quvchilar bunday asarlarni eslab qolishi, qayta hikoyalashi qiyinlashadi. Matn qanchalik murakkab bo'lsa, bolaga uning mazmunini qisqa va aniq yetkazish shunchalik qiyin bo'ladi. Biz kelajakda ta'limdagi muammolardan farzandlarimizni halos etishni hohlaymiz. Matnni qayta hikoyalashga to'g'ri tayyorgarlik ko'rishni o'rgatishni hoziroq boshlashimiz lozim. Buni qanchalik tez boshlasak, bola shunchalik takrorlash algaritmini tezroq o'zlashtiradi. Va bolada unga har qanday matnni tushunish va qayta hikoyalab berish osonroq bo'ladi. Matnni xotirada saqlash uchun necha marta o'qish kerak? O'quvchi matnni bir necha marta o'qishi mumkin lekin u yerda nima yozilganini to'liq eslay olmaydi. Biz o'quvchilarga mazmunli takrorlashni o'rgatishimiz lozim. Matnni birinchi marta o'qiydi. Matn mavzusi haqida umumiy tushuncha oladi. Ya'ni matnda nima deyilga, matn nima haqida: O'quvchi uni ikkinchi marta yana o'qiydi. Ikkinchi marta o'qiganida qo'lida qalam bilan o'qiydi, har bir xatboshida 2-5 ta kalit so'zni tagiga chizib chiqamiz. Bu so'zlar bu matn qismlari nima haqida

ekanligini aytadi. Masalan: 3-sinf O'qish kitobida "Ibn Sinoning shogirdlari" mavzusi ko'rib chiqamiz. Masalan: Ibn Sino qattiq og'rib, ko'rpa-to'shak qilib yotib qoldi, shogirdlarini yoniga chaqirdi, Ibn Sino qoldirib ketayotgan tabiblar, tozalik, parhez, badantarbiya. Bu so'zlarning tagiga chizib chiqamiz. Qolaversa bu so'zlar orqali matn nima haqida ekanligini anglab olishimiz mumkin. O'quvchi matnni uchinchi marta o'qiydi. Uchinchi marta o'qish, bu matnni o'qish bolada qanday his-tuyg'ular paydo bo'lishini tushinishi uchun kerak bo'ladi. Uni o'qib bo'lgandan keyin, (kamida 2 marta), biz matnni qayta hikoyalashga tayyorgarlik ko'rishni boshlashimiz mumkin. Bolani matnga reja tuzishga qanday undash kerak. Qayta hikoya qilishga tayyorgarlik bosqichlaridan biri bu matn rejasini tuzishdir. Shuni hisobga olish kerakki hech bir bola matnga reja tuzishni yoqtirmaydi. Nima uchun? Birinchidan, bu o'quvchi uchun qiyin, chunki u har bir qism uchun qisqa sarlavha o'ylab topishi kerak. Ikkinchidan, rejaning har bir bandini yozish kerak. Bola ham o'qishni, ham o'qigan matnini yozishni, yoqtirmaydi. Uchinchidan, bola uchun matnga reja tuzish mutlaqo keraksiz harakatdek tuyuladi. Qisqacha aytganda, faqat matnni yod olish, reja tuzishga vaqt sarflashdan ko'ra osonroqdir. Ammo biz bilamizki, bu vaqtinchalik holat. Shunday ekan, matnga reja tuzish matnni qayta hikoya qilishga tayyorgarlik ko'rishda juda muhim qadamdir. Faqat rejaga tayangan holda bola matnni mazmunli qayta hikoya qilib aytib bera oladi. Reja-matndagi harakatlar ketma-ketligini, matnda sodir bo'layotgan voqealar orasidagi mantiqiy zanjirlarni, matnning asosiy g'oyasini to'g'ri yetkazish uchun mazmunli vositadir. Ammo buni bolaga tushuntirish befoyda. O'qituvchi bolani reja tuzishga qiziqтира olishi kerak. Quyida matnni rejalashtirishning qiziqarli usullarini tavsiya etamiz. 1-usul Matn konturi narvonga o'xshaydi. Bosqichlarga ko'tarish (bu rejaning nuqtalari), biz doimiy ravishda matn mazmunini boshidan oxirigacha uzatamiz. Bunday holda zinapoyalardan sakrab o'tmasligingiz yoki ularning ketma-ketligini buzmasligi kerak. Zinapoyani torting, qadamlar soni rejadagi nuqtalar soniga to'g'ri kelishi kerak. Siz halqalarning kerakli sonidan peramida shaklida reja tuzishingiz mumkin. Qadamlarda, halqalarda matn rejasining raqamlari yoziladi. 2-usul. Reja qismlari nomlarini so'z bilan yozish shart emas. Balki ularni rasmlarda ifodalash mumkin. Masalan, "Ibn Sino shogirdlari" rivoyatining sxemasi shunday ko'rinishda bo'lishi mumkin. 1-rasmda buyuk qomusiy olim Abu Ali ibn Sino haqida ma'lumot berish. 2-rasmda Ibn Sinoning qattiq betob bo'lib qolganini tasvirda ifodalash. 3-rasmda Ibn Sino o'z shogirdlarini yoniga chaqirib maslahatlar berdi. 3-usul. Rejaning nuqtalarini qanday boshqarish kerak? Bu qisqa jumlar ham bo'lishi mumkin. "Men o'rnimga 5 ta zo'r tabibni qoldirib ketmoqdaman," bu reja asosida matn nima haqida ekanligini bilib olishimiz mumkin. Reja necha banddan iborat bo'lishi kerak? Avval uzunroq reja tuzgan ma'qul. Bunday reja bolaga matnni aniq va izchillik bilan takrorlashga yordam beradi. Afsuski, bunday rejani ishlab chiqish uchun ko'p vaqt kerak bo'ladi. O'qituvchi yuqorida keltirilgan rejalashtirish usullaridan foydalansa, bu ish yanada qiziqarli bo'ladi. Bundan tashqari, vaqt o'tishi bilan bolaning nutqi, tafakkuri rivojlanadi. Bola endi bunday katta va batafsil rejalarga matnni qayta hikoya qilishi osonlashadi. U matnni qalam bilan o'qishni o'rganadi. Maktabda matnni tahlil qilganda, o'qituvchi bolalarga har xil savollar va topshiriqlar beradi. Bu savollarning aksariyati, afsuski, bir xil zerikarli savollar toifasiga kiradi. Bunday savollar va topshiriqlar na bolaning fikrini, na tasavvurini, na o'qigan narsasiga qiziqishini uyg'otmaydi. Masalan:

1. Bu hikoyadanimabo'lganiniketma-ketaytibbering.
2. Qahramonningxarakterxususiyatlarininomlang.
3. Asarning asosiy g'oyasi nima?
4. Muallif qanday ta'riflagan? Toping va o'qing.
5. Qahramonga qanday baho berasiz?

Shunga o'xshash savollar beriladi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng boshlang'ich sinflar uchun yangi dastur va darsliklar yaratildi. O'qish dasturlarida badiiy asarni tahlil qilishga ko'proq ahamiyat berilib, matn ustida ishlash yuzasidan xilma-xil topshiriq turlaridan, texnika vositalaridan foydalanishga ko'proq e'tibor berildi.

Badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakasini shakllantirish bir jarayonda boradi.
2. Asarning g'oyaviy-tematik asoslarini uning obrazlari, syujet chizig'i, qurilishi va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga, bog'lanishli nutqning o'sishini ta'minlaydi.
3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish, asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.
4. Sinfdan o'qish o'quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish va atrof muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish vositasi hisoblanadi.

O'yin usuli (dramalashtirilgan o'yin). Bu usulda personajlarning (ishtirok etuvchilarning) luqma tashlashlari harakatlar bilan boshqariladi: bolalar imo-ishoradan, hayvonlarning ovozlari taqlid qilishdan va boshqalardan keng foydalanadilar, biroq o'yin uchun hech qanday niqoblar, dekoratsiyalar talab etilmaydi. Tarbiyachi avval o'zi muallif nomidan gapiradi, so'ngra bola gapiradi. Dastlab rolni ijro etish uchun nutqi bo'sh rivojlangan bolalar chiqariladi. Dramalashtirilgan o'yin 5 daqiqa davom etadi. Turli yosh guruhlarida qayta hikoya qilib berishga o'rgatish mashg'ulotining tuzilishi (o'tkazish uslubi) har xil boladi. Xulosa qilib shuni aytish joiz ki ertak yoki hikoyani o'qib berishdan oldin tarbiyachi tanishib chiqishi kerak, o'qib berilayotgan ertak qanchalik qiziqarli bo'lmasin tarbiyachi ertak qahramonlari ovozlari ro'lga kirib mutolaa qilib berolmasa bolalar uchun bu ertak qiziqarsiz hamda ahamiyatsiz tuyuladi shuning uchun mutolaa jarayonida tarbiyachi ovoz templarini o'zgartirishi zarur hisoblanadi, bolalar shundagina ertak va hikoyalarni diqqat hamda qiziqish bilan eshtadilar. Tarbiyachilarning maqsadi zukko, dono, bilimli, ertaknavis bolalarni tarbiyalash ekan agar o'n ikki oydan bir oyini alohida oy mavzusi qilib "Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda kitobxonlikga yo'naltirish" deb olsak hamda uni hafta mavzulariga bolish maqsadga muvofiq boladi; 1. - hafta mavzusi : "Kitobning paydo bolish tarixi" 2. - hafta mavzusi : "Kitoblarning turlari" 3. - hafta mavzusi : "O'zbek xalq ertaklari" 4. - hafta mavzusi : "Rus xalq ertaklari" Shu tariqa hafta mavzusini besh kunga bo'lamiz hamda beshta rivojlanish markaz orqali tarbiyachi o'z mashg'ulotni o'tasa hozirgi zamon talabiga muvofiq bo'ladi. Misol uchun hafta mavzusi qilib : "Rus xalq ertaklari"

Shu tariqa hafta mavzusini besh kunga bo'lamiz hamda beshta rivojlanish markaz orqali tarbiyachi o'z mashg'ulotni o'tasa hozirgi zamon talabiga muvofiq bo'ladi. Misol uchun hafta mavzusi qilib : "Rus xalq ertaklari"ni olamiz. 1. - kun mavzusi : "Hayvonlar haqidagi rus xalq ertaklari" 2. - kun mavzusi : "Sehirli fantastik rus xalq ertaklari" 3. - kun mavzusi : "Hayotiy maishiy rus xalq ertaklari" 4. - kun mavzusi : "Ertakchi bolajon" 5. - kun mavzusi : "Ona va bolaning sevimli ertaklar kuni" (mashg'ulot davomida ota onalari ham ishtirok etishligi zarur) i olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017. – 488 b.
2. 8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2016.

- 3 9. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: —O'zbekiston NMIU, 2017. – 48 b.
- 4 O'zbekiston Respublikasi vazirlar maxkamasining “Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash” haqida 2017 yil 21 noyabrdagi 929-son qarori.
- 5 12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son 20.04.2017y
- 6 13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2020 yil 22 dekabrdagi Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim standartlari 802-sonli qarori.